TILLARNI O‘RGANISHDA SUN‘YIY INTELLTEKTDAN FOYDALANISH: IJOBIY JIHATLARI VA KAMCHILIKLARI

Ayxodjayeva M.S., O ‘zDJTSU dotsenti
Ismatova R., BD-01-25-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida, shu jumladan chet tillarini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishning imkoniyatlari baholangan. O‘quv jarayoniga sun’iy intellektni joriy etishning afzal jihatlari va kamchiliklari tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, chet tillarini o‘qitish, o‘qitish usullari.

Аннотация. В статье рассматривается возможность использования искусственного интеллекта в образовательном процессе, в том числе при обучении иностранным языкам. Анализируются преимущества и недостатки внедрения искусственного интеллекта в образовательный процесс.
Ключевые слова: искусственный интеллект, преподавание иностранных языков, методика преподавания.

Abstract: This article examines the potential use of artificial intelligence in the educational process, including foreign language teaching. The advantages and disadvantages of implementing artificial intelligence in the educational process are analyzed.

Keywords: artificial intelligence, foreign language teaching, teaching methods.

Biz sun’iy intellekt tizimlari nihoyatda katta ahamiyat kasb etib borayotgan raqamli asrda yashamoqdamiz. Yaqin vaqtgacha ular odamlarni faqat jismoniy mehnatdan ozod qilib keldi, lekin so‘nggi o‘n yilliklar davomida paydo bo‘lib, shiddat bilan rivojlanayotgan yangi texnologiyalar insonni aqliy faoliyatdan ham “ozod etish” navbati yetganini ko‘rsatyapti. Bu jarayonlar oliy ta’lim, jumladan, chet tillarini o‘qitish sohasini ham qamrab oldi. Zamonaviy til ta’limining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri chet tillarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan, xususan, sun’iy intellektdan foydalanish miqyosining kengayib borayotgani bo‘lib, bu hodisa bugungi globallashuv davrida jamiyatda katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg‘otishi tabiiy.

Sun’iy intellekt tushunchasiga lug‘atda: “...intellektual tizimlarning an’anaviy ravishda faqat insonga xos hisoblangan ijodiy amallarni bajarish xususiyati” deya izoh beriladi. “Zamonaviy sharoitda chet tilini o‘qitish hamda tilni o‘rganish davrida egallanadigan ko‘nikmalar haqidagi tushunchalarning o‘zgarishi turli texnologiyalardan foydalanishning yangicha anglanishiga yordam beradi”, shuning uchun ham, ta’kidlash kerakki, sun’iy intellekt allaqachon zamonaviy ta‘lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan.

Ma’lumki, ta’lim jarayonida chet tillarini o‘rgatish maqsadida foydalanish mumkin bo‘lgan turli xil kompyuter dasturlari, jumladan, onlayn-platforma va ilovalar, til orqali muloqot qilish, grammatika va leksikani takomillashtirish resurslari, You Tubedagi ta’limiy videomashg‘ulotlar va audiomateriallar; o‘yin dasturlari; o‘qituvchilarga o‘quvchilarning muayyan guruhlariga kompyuter asosida moslashtirilgan o‘quv materiallarini yaratish imkonini beruvchi dasturiy vositalar juda ko‘p.

Bizning fikrimizcha, chet tili kompetensiyasini shakllantirishga mo‘ljallangan kompyuter dasturlari yordamida chet tillarini o‘qitish jarayonini zamonaviylashtirish va dinamikasini kuchaytirish, o‘rganuvchilarning qiziqishlarini oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi o‘zaro munosabatlarning an’anaviy shakllari samarasiz bo‘lib qolgan hollarda vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlash, alohida o‘qitish usullarini topish va ayni vaqtda ta’lim natijalarini tekshirish hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish mexanizmlarini avtomatlashtirish, o‘quv mashg‘ulotlarining nazorat nuqtalarini hisobga olish algoritmini o‘rganish, ta’lim dasturini kuzatib borish, o‘qitish dasturidagi o‘zlashtirilishi eng murakkab elementlarni aniqlash va ulardan o‘qituvchini xabardor qilish mumkin. Kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishni, shubhasiz, sun‘iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari sirasiga kirita olamiz, ular til o‘rganish jarayonini faollashtirishga yordam beradi.

Endi chet tilini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishning kamchiliklari hisoblangan ba’zi jihatlarni ko‘rib chiqaylik. Ta’kidlash kerakki, sun’iy intellektning inson hayotida paydo bo‘lishi xorijiy tillarni o‘rganish motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunday savol tug‘iladi: elektron tarjimon hamma narsani qila olsa, hatto chet tillarini yozma va og‘zaki shaklda takrorlay olsa va muloqotni osonlashtirsa, nega chet tillarini o‘rganish kerak?

Matnning umumiy mazmunini tushunish til bilimini talab qilmaydi. Biroq faqat onlayn tarjimondan foydalangan holda so‘zlarning noaniqligi tufayli turli tillardagi ikkita matn o‘rtasida 100% o‘xshashlikka erishish mumkin emas.

Mana bir nechta misollar. Darslikdan olingan jumla:

Компетентностный подход к анализу профессиональной деятельности и в целом образованности человека…

Onlayn-tarjimon yordamida qilingan tarjima:

Kasbiy faoliyatni va umuman, shaxsning ta‘limini tahlil qilishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv...

Aslida quyidagicha tarjima qilinishi kerak:

Odamning kasbiy faoliyatini va, umuman, bilim darajasini tahlil qilishga kompetensiyaviy yondashuv...

Yoki:

Проблемные вопросы, интегративные задания позволят студентам и преподавателям осуществлять контроль и самоконтроль качества профессиональной подготовки.

Onlayn-tarjimon yordamida qilingan tarjima:

Muammoli savollar va integrativ topshiriqlar talabalarga imkon beradi va o‘qituvchilar sifatini nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ularning kasbiy tayyorgarligi.

Bu yerda so‘zlar to‘g‘ri tarjima qilingan, ammo gap tugallanmagan, uning bo‘laklari tartibi talabga javob bermaydi. Aslida bu gap quyidagicha tarjima qilinishi kerak edi:

Muammoli savollar hamda integrativ topshiriqlar talabalar va o‘qituvchilarga kasbiy tayyorgarligi sifatini va o‘z-o‘zini nazorat qilish imkonini beradi.

Darslikdan olingan gap:

Социально-личностное воспитание решает задачу расширения социального кругозора дошкольников, представлений о людях, семье, семейных и родственных отношениях, культурных традициях семьи, детского сада, города, страны.

Onlayn-tarjimon yordamida ushbu natija olingan:

Ijtimoiy va shaxsiy ta’lim maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ufqlarini kengaytirish, odamlar, oila, oila va qarindoshlik munosabatlari, oila, bolalar bog‘chasi, shahar va mamlakatning madaniy an’analarini tushunish muammolarini hal qiladi.

Aslida quyidagicha tarjima qilinishi kerak:

Ijtimoiy-shaxsiy tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy fikr doirasini, odamlar, oila, oilaviy va qarindoshlararo munosabatlar, oila, bolalar bog‘chasi, shahar va mamlakatning madaniy an’analari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish muammolarini hal qiladi.

Bundan tashqari, xorijiy tillarni o‘rganishda elektron tarjimonlardan foydalanish talabalarni lug‘at bilan ishlashdan uzoqlashtirib yuboradi, ular so‘z, ibora va jumlalargina emas, balki umuman matnni tarjima qilish ishini butunlay mashinaga yuklab qo‘yishga odatlanib qoladilar. Natijada, ularda muayyan tilga xos leksik minimum yoki grammatik tuzilmalar bilan ishlash, so‘zning berilgan matndagi ma’nosini aniqlash ko‘nikmasi shakllanmaydi. O‘qituvchi rahbarligida auditoriyada olingan bilim talabalarning mustaqil faoliyati bilan mustahkamlanmagach, butkul yo‘qqa chiqadi. Zero, Y.V.Kotelnikovaning qayd etishiga ko‘ra, sun’iy intellektning imkoniyatlari kengaygani sayin undan samarasiz foydalanish xavfi ham ortib boradi.

Amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, kompyuter dasturlarini qo‘llashning eng yaxshi natijalari fonetik, leksik va grammatik kontent ustida ishlashda, o‘qish texnikasini, qisman yozishni o‘rgatishda, shuningdek, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilishning turli shakllarini tashkil etishda kuzatilishi mumkin. Bu kompyuter dasturlarining qat’iy belgilangan harakatlar algoritmiga “rioya qilishi” bilan bog‘liq. Darhol reaksiya qilish va moslashuvchanlikni talab etadigan muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish masalasiga kelsak, sun’iy intellekt bunday xususiyatlarga ega emas. Shu sababdan chet tillarini o‘qitishda ta’lim jarayonini sun’iy intellektdan foydalanishsiz tasavvur qilish qiyin, biroq bu jarayonni diqqat bilan o‘lchash va sinchiklab ko‘rib chiqish kerak. Nazarimizda, an’anaviy ta’limni kompyuter yordamida o‘qitish bilan mohirona kombinatsiyalash eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son qarori.

2. Аверкин А.Н. Толковый словарь по искусственному интеллекту. М.: Радио и связь, 1992. 256 с.

3. Губина Т.Н., Зубарева Е.В. Тенденции применения образовательных веб-сервисов учителем математики в общеобразовательной школе // Информатика и образование. 2015. № 9 (268). С. 59–61.

4. Есионова Е.Ю. Искусственный интеллект как альтернативный ресурс для изучения иностранного языка // Гуманитарные и социальные науки. 2019. № 3.

5. Котельникова Е.В. Когнитивные аспекты осмысления смешанной речемыслительной деятельности межкультурной коммуникации // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2012. № 7 (18). С. 108–110.